



## CHIZMACHILIK FANINI ZAMONAVIY KASBLAR BILAN INTEGRATSIYA QILISH

N. QOSIMOVA

Qo'qon davlat pedagogika instituti "Milliy hunarmandchilik va amaliy san'at  
fakulteti" chizmachilik fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7985377>

**ANNOTATSIYA** Ma'lumki, shiddatli tezlikda rivojlanayotgan erkin bozor iqtisodiyoti biz pedagoglarga juda katta talablarni qo'ymoqda. Maktab, kasb-hunar kolleji va oliy ta'lim bitiruvchilari qanchalik zamonaviy kasblarni eggalay oladi va uning talablariga javob beradimi? - degan savol kun tartibimizga dolzarb bo'lib kelmoqda. Zamon talabiga mos malakali kadrlarni tezroq yettishirib chiqarishimiz kerak. Hozirda zamonaviy kasblardan biri bo'lgan "Freelancer" kasbini o'quv darsliklarda qo'llash kerak. Freelancer – o'zbekcha "frilanser ya'ni bu kelajak kasbi bo'lib, bir yoki bir nechta buyurtmachi tomonidan kelgan xizmatlarni masofadan turib bajaradigan yollanma ishchi. Maktablarda chizmachilik kursida 3d grafik dasturlarni (AutoCAD, blender, illustrator va boshqalar) o'rgatish orqali zamonaviy kasblardan biri bo'lgan frilanser bo'lishga dastlabki va muhim qadam ekanligi aks etadi.

**Kalit so'zlar:** Freelancer, chizmachilik, 3d grafik dastur, AutoCAD, blender, illustrator

**АННОТАЦИЯ** Известно, что стремительно развивающаяся рыночная экономика предъявляет к нам, педагогам, высокие требования. Насколько



выпускники школы, профессионального колледжа и вуза могут овладеть современными профессиями и соответствовать их требованиям? - вопрос становится актуальным для нашей повестки дня. Нам необходимо как можно скорее подготовить квалифицированный персонал. Профессия «фрилансер», которая является одной из современных профессий, должна быть использована в учебниках. Фрилансер в переводе с узбекского означает «фрилансер», то есть это профессия будущего, наемный работник, удаленно выполняющий услуги, предоставляемые одним или несколькими заказчиками. Преподавание трехмерных графических программ (AutoCAD, Blender, Illustrator и т. д.) на курсах рисования в школах отражает тот факт, что это начальный и важный шаг к тому, чтобы стать фрилансером, одной из современных профессий.

**Ключевые слова:** Фрилансер, рисование, программа 3D-графики, AutoCAD, блендер, иллюстратор.

**ABSTRACT** It is known that the rapidly developing free market economy makes great demands on us pedagogues. To what extent can the graduates of school, vocational college and higher education take up modern professions and meet its requirements? - the question is becoming relevant to our agenda. We need to produce qualified personnel as soon as possible. "Freelancer" profession, which is one of the modern professions, should be used in textbooks. Freelancer is the Uzbek word for "freelancer", that is, it is a profession of the future, a hired worker who remotely performs services provided by one or more customers. By teaching 3D graphic programs (AutoCAD, Blender, Illustrator, etc.) in the drawing course in schools, it is reflected that it is an initial and important step to becoming a freelancer, one of the modern professions.



**Keywords:** Freelancer, drawing, 3d graphics program, AutoCAD, blender, illustrator

**KIRISH** Mamlakatimizda ta'lim tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar rivojlangan demokratik davlat barpo etish talablariga mos ravishda yoshlarning ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, o'quv jarayoniga ta'limning zamonaviy shakllari va usullarini joriy etish vazifasi qo'yilmoqda. Biz bu maqolada nima uchun aynan frilanser kasbi bilan chizmachilik fani orqali o'rgatish qanday bog'liq ekanini ko'rib chiqamiz. Bozor iqtisodiyoti eng rivojlangan mamlakatlardan biri Amerika Qo'shma Shtatidagi frilanser kasbini ahamiyati ko'rib chiqamiz. 2022-yil yakuni bo'yicha AQShda umumiy ishchilarning 36% ya'ni 70.4 million kishi frilanser bo'lib ishlaydi.<sup>1</sup>

Mamlakatimizda ham bu sohani rivojlantirishga juda katta e'tibor berilmoqda. Bugungi kunda yurtimizda frilanserlar tomonidan xorijiy platformalar orqali topilgan daromad hajmi 9 mln. dollarni tashkil etadi.<sup>2</sup> Agar maktab bitiruvchilarning 38% oliy ta'lim bilan qamroviga e'tibor qaratsak, biz qolgan 62% yoshlarimizni maktabda frilanser kasbi haqida tushuncha berishimiz lozim. Agar frilanser bilan shug'ullanayotganlarning ma'lumot darajasi ko'radigan bo'lsak, yoshlar ko'roq frilanser kasbiga e'tibor berish kerakligini ko'rish mumkin. Yoshga qaraydigan bo'lsak ham 18-23 yoshdagilar 50% ni tashkil qilmoqda. Axir, yurtimiz baxtiyor yoshlar mamlakati bo'lib, mamlakatimiz aholisining qariyb 64 foizini yoshlar, ya'ni 30 yoshgacha bo'lganlar tashkil etadi. Albatta bu, davlatimiz zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklashini ko'z oldimizga keltirsak, juda katta e'tibor, g'amxo'rlikni talab etadi, ikkinchi tomondan yoshlarimizga ko'rsatiladigan e'tibor, ertaga ulkan yutuq va natijalarini ham beradi. Chunki hozir O'zbekiston mehnat resurslarining yarmidan ko'pi yoshlardir. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, frilanser



kasbiga yoshlarni keng miqyosda targ'ib qilish lozim. Endi chizmachilik fanini zamon talabiga moslash va uning imkoniyatlaridan maksimal foydalanish kerak. upwork.com online plaformasidagi statistikani kuzatsak chizmachilik fani frilanser sohasida katta ahamiyati borligini ko'rishimiz mumkin. Maktabdagi 8-9-sinf chizmachik kitobining yillar davomidagi modernizatsiyasi oxirgi 10 yilda 2 ta mavzuning o'zgargani va u mavzular ham o'quvchilarda qiziqish uyg'otmaydigan mavzulardir. Biz hali chizmalarni qog'oz shaklida talab qilganimiz ham zamon talabi mos emas. Hozirda har qanday qurilish yoki muhandislik firmalari biron bir grafik dasturda chizib berish talabini qo'yadi. Demak bizning o'quv dasturlar va darsliklar o'quvchilarimizni real hayotdagi ko'nikmalarga mos emas.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.

[https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=izV8z6QAAAAJ&citation\\_for\\_view=izV8z6QAAAAJ:SxCCDk4iOpsC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=izV8z6QAAAAJ&citation_for_view=izV8z6QAAAAJ:SxCCDk4iOpsC) N Qosimova

2.

[https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=izV8z6QAAAAJ&citation\\_for\\_view=izV8z6QAAAAJ:JP7YXuLIOvAC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=izV8z6QAAAAJ&citation_for_view=izV8z6QAAAAJ:JP7YXuLIOvAC) K Nilufar

3. Hasanov R. Tabaqalashtirilgan ta'lim muammolari. Uzluksiz ta'lim jurnali. –2003 . 2-son.

4. Hasanov R. Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi. Darslik. –Toshkent: Fan. 2004.

5. Qodirov K.B. Tabaqalashtirilgan ta'limda psixologik-pedagogik tashxis. – Toshkent: O'zPFITI. 2005.



6. [www.arxiv.uz](http://www.arxiv.uz)

7. [www.referat.arxiv.uz](http://www.referat.arxiv.uz)